

XIVA XONLIGI TARIXIDAGI ISLOHOTCHI BOSH VAZIR

Nematov Azamat

Toshkent viloyati Toshkent tuman 1-son-kasb-hunar maktabi

tarix fani o'qituvchi

nematovazamat19@gmail.com

ANNOTATSIYA

Turkiston tarixining XIX asr oxiri – XX asrlar boshidagi tarixi juda ziddiyatli davr bo'lib, bu davrda ushbu hududda Rossiya imperiyasi tomonidan istilochilik harakatidan so'ng bu yerdagi mazlum xalqlarning chet el bosqinchilarga qarshi harakati va mustaqillikka erishishda ma'rifatparvarlikni afzal deb bilgan jadidchilik harakati va bu harakatning Xiva xonligidagi yosh xivaliklar harakati faol rahnamolaridan, xonlik tarixida "islohotchi vazir" sifatida tanilgan Vaziri Akbar Sayid Islomxo'ja Ibrohimxo'ja o'g'li (1872-1913) ning hayoti va faoliyati, xonlik tarixida muhim iz qoldirgan islohotlar dasturi, sirli o'limi xususida ushbu maqolada aks ettirilgan.

Kalit so'zlar: *Sayid Islomxo'ja, Vaziri Akbar, Asfandiyorxon, islohotchi vazir, yosh xivaliklar, jadidchilik, islohotlar dasturi, sirli o'lim.*

ANNOTATION

The history of Turkestan in the late 19th and early 20th centuries is a very conflicted period. During this period, after the occupation by the Russian Empire in this region, the movement of the oppressed peoples against the foreign invaders and the Jadidism movement, which considered enlightenment as the best way to achieve independence, and the movement of this movement during the Khiva Khanate In this article, the life and work of Waziri Akbar Syed Islamkhoja Ibrahimkhoja son (1872-1913), one of the active leaders of the Khiva movement, known as the "reforming

minister" in the history of the Khanate, the program of reforms that left an important mark in the history of the Khanate, and his mysterious death are reflected in this article.

Key words: *Syed Islamkhoja, Waziri Akbar, Asfandiyar Khan, reformist minister, young Khiva people, Jadidism, reform program, mysterious death.*

Xiva xonligi tarixiga nazar solinar ekan, xonlarning yonida ko‘plab bosh vazirlar o‘tishgan. Ularning aksariyatining nomlari tarix zarvaraqlaridan o‘chib ketgan. Ammo Sayid Islomxo‘ja o‘z siyosiy faoliyatida Xiva xonligi tarixida munosib o‘ringa ega bo‘lgan edi. Vaziri Akbar Sayid Islomxo‘ja Ibrohimxo‘ja o‘g‘li o‘zining siyosiy faoliyatida Xiva xonlaridan Muhammad Rahimxon II va uning o‘g‘li Asfandiyorxon hukmronligi davrida Xiva xonligi mehtarlik – bosh vazirlik lavozimida(1910-yildan Vaziri Akbar) faoliyat ko‘rsatgan. Sayid Islomxo‘janing otasi Ibrohimxo‘ja sayidlar avlodidan bo‘lib, ma‘rifatparvar va badavlat kishilardan biri edi. Shu o‘rinda aytish kerakki, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Xiva xonligi tarixida muhim o‘rin tutgan tarixiy shaxslar qatoridan Ibrohimxo‘ja ibn Sayid Muhammadxo‘ja va uning o‘g‘li Sayid Islomxo‘ja aqlli, dono va ishbilarmonigi bilan ajralib turar edi. Ibrohimxo‘janing 4 ta o‘g‘li bo‘lib, Sayid Islomxo‘ja ikkinchi o‘g‘li edi. O‘zining siyosiy faoliyatini 16 yoshida Hazorasp hokimi sifatida boshlagan va 1898-yildan xonlikda dastlab mehtarlik, keyinchalik bosh vazir lavozimiga tayinlanadi. 1898 – yilda amakasi Sayid Abdulla vafotidan so‘ng xonlikdagi bosh vazirlik lavozimiga kelishi bilan uning faoliyatida xonlikdagi islohotchilik bilan birga boshqaruv tizimiga ham qaratiladi. U bu lavozimga kelganida endigina 26 yoshda bo‘lganligini inobatga olinsa, yosh bo‘lishiga qaramasdan xonlikda juda katta obodonchilik va islohotlar o‘tkazgan edi. Xususan, o‘z faoliyati davomida ko‘plab yangiliklar qilish, xonlikda hayotini yaxshilashga qaratilgan ishlarni amalga oshiradi. U boshqaruv davrida Xivada 30 dan ortiq me‘moriy yodgorliklar qurilishiga, madrasa, masjidlar qurilishiga, shuningdek, yangi rus-tuzem maktablar qurilishiga homiylik ishlariga, xonlikdagi obodonchilik ishlariga rahbarlik qilgan. Shuningdek, XX asr boshlaridagi o‘ta murakkab siyosiy sharoitda Sayid Islomxo‘ja xonlikda sanoat va qishloq xo‘jaligi

ishlarini yo‘lga qo‘yish, savdo-sotiqni rivojlantirish va madaniy hayotni jonlantirish ishlariga katta e’tibor bergan edi. O‘zining bosh vazirlik faoliyatining juda ko‘p davrini Asfandiyorxon xonligi davrida o‘tkazadi. Asfandiyorxonning hukmronligi yillarida (1910-1918-yillar) davlat ishlarini boshqarish uchun yangi lavozim “Vaziri Akbar” lavozimi joriy etilganidan so‘ng bu davrga kelib xonlik hayotiga oid barcha asosiy masalalar yechimi Vaziri Akbar qo‘lida to‘planishi munosabati bilan o‘z ahamiyatini yo‘qotgan oldingi davlat lavozimlari qo‘shbegi (harbiy boshliq) va mehtar (bosh xazinachi) lavozimlari bekor qilingan. Xususan, ushbu lavozimga 1910-yilda Sayid Islomxo‘ja loyiq ko‘riladi.

Sayid Islomxo‘ja xonlikdagi ma’rifatparvarlik bilan o‘z faoliyatini olib borayotgan yosh xivaliklar bilan ham aloqa o‘rnatgan edi. Ushbu harakat mo‘tadil siyosiy kayfiyatda bo‘lib, xonlikda konstitutsion monarxiya tuzimi tarfdori, xonlikda xonning huquqlari cheklanishini talab qilib chiqadi. Shu o‘rinda, Sayid Islomxo‘ja tomonidan ishlab chiqilgan va xonlikdagi jadidchilik harakati namoyondalari bo‘lmish yosh xivaliklar faoliyati uchun dasturamal bo‘lib xizmat qilgan “islohotlar dasturi” ham xonlikdagi inqirozli holatdan olib chiqish va xonlikni rivojlangan davlatlar qatoriga olib chiqish uchun olib borilgan harakat edi.

1911 – yil 22 – yanvarda Xiva shahrida xonning oliy martabali amaldorlari kengashida islohotning 10 bo‘limdan iborat dasturi ishlab chiqilib, qabul qilindi. Kengashda islohot dasturini ishlab chiqishda, mamlakat va fuqarolar uchun uning mohiyatini izohlab berishda Islomxo‘ja uzoqni ko‘ruvchi katta aql sohibi, tashabbuskor tashkilotchi, vatan ravnaqi uchun jonkuyar davlat arbobi ekanligini ko‘rsatar edi.

Bosh vazir Sayid Islomxo‘ja o‘limi va ushbu masala xususida XX asr boshlarida, shuningdek, mustaqillik davrida yozilgan adabiyotlarda turli xil qarashlar mavjud. Bunda asosiy jihatlari shundan iboratki, uning o‘limi tafsiloti masalasida: Rossiya imperiyasi tomonidan uyushtirilgan degan qarash, bundan tashqari, Xiva xoni Asfandiyorxon buyrug‘i bilan va yana xonlikdagi saroy a‘yonlari tomonidan uyushtirilgan edi, degan qarashlar mavjud. Bunda Sayid Islomxo‘ja davrida yashab

ijod qilgan tarixchilarning tarixiy asarlari, xususan, “Yosh xivaliklar” ning yo‘lboshchilaridan Polvonniyoz hoji Yusupovning hamda naqqosh, tarixchi Abdulla Boltayevning qo‘lyozma asarida ham Asfandiyorxon o‘z qaynotasi Islomxo‘jani o‘ldirtirgani qayta – qayta ta’kidlab o‘tiladi.

Xiva xonligi tarixida islohchi vazir sifatida iz qoldirgan Sayid Islomxo‘ja hayoti va faoliyatini o‘rganish, tadqiq etish orqali uning faoliyatini bugungi kunda yosh avlod uchun ibrat maktabi sifatida ko‘rsatish mumkin. Amalga oshirgan ma’rifatparvarlik faoliyati va madaniy-ma’rifiy sohalardagi islohotlari va ularning xonlik hayotini yaxshilashdagi o‘rni beqiyos ekanligini ta’kidlash zarur. Ushbu tarixiy shaxs xususida uy-muzey, tarixiy filmlar, asarlar yaratilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. *Муҳаммад Юсуф Баёний. Шажарайи Хоразмиохий. Т.: Камалак, 1991.*
2. *Давлатёр Р., Матрасул Ш. Феруз - шох ва шоир қисмати. Т.: Фафур Фулом, 1991.*
3. *Сотлиқов А., Матниёзов А. Хива хонлигининг маъмурий тузилиши ва бошқарилиши тартиби. Хоразм.: Урганч, 1997.*
4. *Abdurasulov A. Xiva. Т.: O‘zbekiston, 1997.*
5. *Маҳмудов М. Хоразм тарихидан саҳифалар.— Урганч, 1998.*